

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARI, ULARNING ANALOGLARI YOKI PSIXOTROP MODDALARNING KONTRABANDASI BILAN BOG‘LIQ JINOYATLAR

Mirjon Mo‘minovich Raxmatov

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi “Tergov faoliyati” mutaxassisligi bo‘yicha magistratura tinglovchisi.

**E-mail:** [rahmatov1778@gmail.com](mailto:rahmatov1778@gmail.com)

Phone: +99899 862-50-54

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10559984>

**Annotatsiya.** Maqolada bugungi kunda butun dunyoda muammoga aylanib borayotgan kontrabanda jinoyati yer yuzida xavfsizlikka, barqarorlikka, qolaversa har bir jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamda ma‘naviy sohalariga katta xavf solishiga qarshi kurashish bo‘yicha amaliy tavsiyalar bildirilgan.

Shunday vaziyatda kontrabanda jinoyatiga qarshi kurashish nafaqat O‘zbekiston Respublikasi balki dunyo mamlakatlarining ham e‘tibor markazida turibdi. Xususan, kontrabanda ashyolarini bojxona chegarasi orqali qonunga xilof ravishda o‘tkazishga Qozog‘iston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi hamda Xitoy Xalq Respublikasi jinoyat qonunchiligida belgilangan javobgarliklar buni yaqqol isbotidir.

**Kalit so‘zlar:** bojxona, kontrabanda, giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar, prekursorlar, noqonuniy aylanmasi, jinoyat, javobgarlik, jazo, jamoat xavfsizligi, jamoat tatibi.

### CRIMES RELATED TO THE SMUGGLING OF DRUGS, THEIR ANALOGUES OR PSYCHOTROPIC SUBSTANCES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Abstract.** In the article, practical recommendations are given to fight against smuggling crime, which is becoming a problem all over the world today, which poses a great threat to the security, stability and economic, political, cultural and spiritual spheres of every society.

In such a situation, the fight against smuggling crime is in the center of attention not only of the Republic of Uzbekistan, but also of the countries of the world. In particular, the criminal laws of Republic of Kazakhstan, the Russian Federation and the People’s Republic of China clearly prove this.

**Key words:** customs, smuggling, narcotics drugs, their analogues, psychotropic substances, precursors, illegal trafficking, crime, liability, punishment, public safety, public order.

### ПРЕСТУПЛЕНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С КОНТРАБАНДОЙ НАРКОТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ, ИХ АНАЛОГОВ ИЛИ ПСИХОТРОПНЫХ ВЕЩЕСТВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

**Аннотация.** Статья представляет собой проблему современного мира. Продолжающееся преступление контрабанды, затрагивает безопасность, стабильность, экономическую, культурную и духовную безопасность каждого общества на земле, представлены практические рекомендации по борьбе с большой угрозой месторождениям.

В такой ситуации борьба с контрабандной преступностью находится в центре

внимания не только Республики Узбекистан, но и стран мира. В частности, ярким тому подтверждением является ответственность, установленная в уголовном законодательстве Республики Казахстан, Российской Федерации и Китайской Народной Республики за незаконный перенос контрабандных предметов через таможенную границу.

**Ключевые слова:** таможня, контрабанда, наркотические средства, их аналоги, психотропные вещества, прекурсоры, незаконный оборот, преступление, ответственность, наказание, общественная безопасность, общественный порядок.

## KIRISH

Giyohvandlik vositalari savdosi butun insoniyat salomatligi va farovonligiga, davlatlarning mustaqilligi, demokratiya, millatlar barqarorligi, jamiyat tuzilishi, millionlab odamlar va ularning oilalari qadir-qimmatini va umidlariga jiddiy tahdid solayotgan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish inson sog'lig'i va jamiyatning iqtisodiy va madaniy negiziga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Giyohvandlik kamubtalo bo'lgan kishi atrof-muhitda bo'layotgan voqealarga beparvo bo'lib qoladi. Uning girdobiga tushganlar nafaqat o'z yaqinlari, balki yurtini ham tanimaydigan manqurtga aylanadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida qonun bilan taqiqlanganligiga qaramasdan giyohvandlik vositalarini ishlab chiqaruvchi va u bilan savdo qiluvchilarning soni yil sayin ortib bormoqda. Buning sababi, giyohvandlik vositalari savdosi ortidan mo'may daromad orttirish imkoniyati mavjudligi bo'lib, uning ishtirokchilari xalqaro huquq normalari bilan ham, milliy qonunchilik tizimi bilan ham, ayniqsa, uning halokatli oqibatlarini bilan ham hisoblashmay jinoyat ishga qo'l urishmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi uzoq yillardan buyon giyohvandlik vositalarining mamlakat ma'daniy va ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri kuchayishini inobatga olib, unga qarshi kurashni milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida baholab, mamlakatda mazkur illatiga qarshi kurash bo'yicha xalqaro hamjamiyatga qo'shilib, bu boradagi jinoyat-huquqiy ta'sir choralari takomillashtirish borasida faol harakatlar olib bormoqda. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi bilan shug'ullanuvchi shaxslar o'z harakatlarni yashirin "latent" ko'rinishida amalga oshiradilar ularning bu jinoyatlarini aniqlash va fosh etishda bojxona organlarining oldida kechiktirib bo'lmaydigan bojxona tekshiruvlari va surishtiruv harakatlarini amalga oshirish xamda tezkor qidiruv faoliyatining kuch va vositalarini samarali qo'llash orqali erishiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi **“Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”**gi PF-122-son Farmoniga muvofiq, Bojxona qo'mitasiga yuklatilgan boshqa vazifalar qatorida, joylardagi davlat hokimiyati, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari bilan hamkorlikda, kontrabanda va bojxona sohasidagi boshqa jinoyatlarni oldini olish va fosh qilish bojxona organlari faoliyatining eng muhim funktsiya hamda yo'nalishlaridan biri ekanligi yana bir bor ta'kidlab o'tildi.

Inson uchun eng bebaho boylik salomatlik bo'lib, uni asrash esa har birimizning qo'limizda. Giyohvandlik insonga har tomonlama ulkan zarar beradi. Buni dunyo tibbiyot mutaxassislari bir ovozdan tasdiqlashmoqda. Giyohvandlik vositalari oqibatida o'nlab tuzalmas

kasalliklarga yo‘liqish, bevaqt o‘lim holatlari, majruh, aqli nokas farzandlar tug‘ilishi isbotlangan. Shuningdek, bu zararli illat insonni o‘ta yalqov, kam g‘ayrat, oilaga beparvo, hamiyatsiz, jinsiy zaif va jamiyatdan uzilib qolishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi uzoq yillardan beri giyohvandlik vositalarining mamlakat ma‘daniy va ma‘naviy hayotiga salbiy ta‘siri kuchayishini inobatga olib, unga qarshi kurashni milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida baholab, mamlakatda ushbu illatiga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro hamjamiyatga qo‘shilib, bu boradagi jinoyat-huquqiy ta‘sir choralari takomillashtirish borasida faol harakatlar olib bormoqda. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi bilan shug‘ullanuvchi shaxslar o‘z harakatlarni yashirin “latent” ko‘rinishida amalga oshiradilar ularning bu jinoyatlarini aniqlash va fosh etishda bojxona organlarining oldida kechiktirib bo‘lmaydigan bojxona tekshiruvlari va surishtiruv harakatlarini amalga oshirish xamda tezkor qidiruv faoliyatining kuch va vositalarini samarali qo‘llash orqali erishiladi.

Hozirgi davrda davlat boshqaruvi organlarining “Davlat — inson uchun” tamoyili asosida hududiy masalalarni hal qilishdagi mas‘uliyati va javobgarligini kuchaytirish hamda ularning strategik yo‘nalishlarni rejalashtirishga qaratilgan yangi tizim yaratish maqsadida, qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta‘sirini kuchaytirishga yo‘naltirgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish masalalariga muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadigan tadqiqot yo‘nalishi sifatida alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bojxona organlari vakolatiga davlat chegarasidagi tahdidlarga qarshi kurashish masalalari kiritilganligi sababli, bojxona xizmatlarining salohiyati kontrabanda va bojxona sohasidagi boshqa jinoyatchilikka qarshi kurashda hamda bojxona chegarasi orqali giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishiga chek qo‘yishda bevosita ishtirok etadi.

Kontrabanda jinoyatini sodir etuvchi shaxslar o‘zlarning jinoiy maqsadlariga erishish uchun uyushgan guruhlar tarzida, o‘z harakatlarini puxta nikohlab, sodir qilish uslublarni mukammallashtirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan xolda sodir etmoqdalar.

2022-yil 28-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonning 16-maqсадiga binoan, Jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish kerakligi alohida belgilab qo‘yilgan.

Giyohvandlik vositalari kontrabandasiga qarshi kurashish Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur faoliyatni amalga oshirishda “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi Qonun, “Tezkor qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi xamda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning tegishli moddalariga asosan huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish va fosh etish orqali mazkur jinoyatga qarshi kurash olib boradilar.

BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNODC) e‘lon qilgan 2023-yilgi Giyohvandlik vositalari bo‘yicha Jahon hisobotiga ko‘ra, 2021-yilda inyeksiya orqali giyohvandlik vositalarini iste‘mol qiladigan odamlar soni 13,2 millionni tashkil etadi, bu avval

taxmin qilinganidan 18 foizga ko'p. Dunyo miqyosida 2021-yilda 296 milliondan ortiq odam giyohvandlik vositalarini iste'mol qilgan, bu o'tgan yilga nisbatan 23 foizga o'sgan. Giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish bilan bog'liq kasalliklardan aziyat chekayotganlar soni esa 39,5 millionga yetdi, bu 10 yil ichida 45 foizga o'sdi.<sup>1</sup> Hozir yoshlar orasida giyohvandlarning muayyan tizimi shakllanmoqda. Har yili yoshlar o'rtasida giyohvandlar soni 15-20 foiz ko'payib bormoqda. Respublikamizda ro'yxatga olingan giyohvandlarning uchdan ikki qismi 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardan iborat va ular o'rtacha 18-25 yoshdagi shaxslardir. Yurtimizda dispanser ro'yxatida turadigan giyohvand bemorlar soni 5698 tani tashkil etadi. Giyohvandlik strukturasi kannabis guruhidagi narkotiklarni iste'mol qiluvchilarning salmog'i yuqori — 3982 nafarni, opiy iste'molchilari esa 1418 nafarni, geroinga tobe bo'lganlar soni 536 nafarni tashkil etadi.

Mamlakatimizda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarga qarshi kurash choralari belgilash dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Asosiy maqsad giyohvandlik vositalari kontrabandasi, ularni olib o'tish yo'nalishlari, ularni tayyorlovchi yashirin laboratoriyalar va giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarini noqonuniy saqlash uchun mo'ljallangan joylarini aniqlash, mazkur jinoyat ishtirokchilarini hukumat va boshqaruvdagi korrupsion aloqalarini ochib berish, narkotrafik biznesining iqtisodiy asoslariga putur yetkazishdan iboratdir.

---

Bojxona qo'mitasining tezkor tuzilmasixodimlari o'z vakolatlari doirasida giyohvandlik vositalarini Respublika hududiga noqonuniy kirib kelishi va ichki hududda noqonuniy aylanishini oldini olishi, aholi o'rtasida mazkur illatning keng yoyilishiga qarshi kurashish, jinoyatchilikni fosh etishga qaratilgan tezkor qidiruv tadbirlarini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy masalasiga alohida e'tibor qaratiladi.

Kontrabanda jinoyati **predmeti** kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, portlovchi moddalar, radioaktiv materiallar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog', o'qotar qurol, o'q-dorilar yoki o'qotar qurolning asosiy qismlari, shuningdek giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar yoki diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallar, yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg'in qurolining boshqa turlari, shunday qurollarni yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon bo'lgan material va moslamalar bo'lishi mumkin.

Kontrabanda predmetlarini davlat chegarasi orqali qonunga xilof ravishda o'tkazish, tegishli shartlar mavjud bo'lganda, jinoyatlar majmui tariqasida Jinoyat kodeksining 246-moddasi hamda radioaktiv materiallar, giyohvandlik vositalari, kuchli ta'sir qiluvchi zaharli, zaharlovchi, portlovchi moddalar, qurol-yarog', portlatish qurilmalari va boshqalar bilan muomala qilish qoidalarini buzganlik javobgarlikni keltirib chiqaruvchi moddalar bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Kontrabanda jinoyatining **obyekti** – jamoat xavfsizligining ta'minlaydigan ijtimoiy

---

<sup>1</sup> World Drugs Report (United Nations publication, Sales No. E.20.XI.6). ISBN: 978-92-1-48345-1 eisbn:978-92-1-005047-0

munosabatlar hamda aholi salomatligi hisoblanadi.

Jinoyatning **obyektiv tomoni** Jinoyat kodeksining 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan turli shakllarda:

- bojxona nazoratini chetlab o'tkazish;
- bojxona nazoratidan yashirish;
- bojxona hujjatlari yoki bojxona identifikatsiyalash vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanish;
- deklaratsiya qilmasdan yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanish;
- chegarani buzib o'tishda ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona yoki davlat chegaralar orqali giyohvandlik vositalarini noqonuniy olib o'tish quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- respublika hududiga bojxona chegarasi orqali yoki aylanma yo'llar orqali giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarning noqonuniy olib kirish yoki olib chiqish;
- deklaratsiyalmasdan yoki boshqa tovar niqobi ostida deklaratsiyalab olib o'tish;
- olib o'tiladigan tovar to'g'risidagi noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim qilish (qalbaki hujjatlardan foydalangan holda);
- o'tkaziladigan tovarni yashirish yoki unga boshqa ko'rinishni berish (huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan giyohvandlik vositalarini aniqlashni qiyinlashtiruvchi turli usul va vositalardan foydalanib).

Kontrabanda jinoyatining **subyektiv tomoni** – jinoyat qasddan sodir etiladi. Jinoyat **subyeksi** – 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 246-moddasi 2-qismida ko'zda tutilgan malakalovchi belgilar ko'p miqdordagi Giyohvandlik vositalari kontrabandasini amalga oshirganlik uchun javobgarlikni belgilaydi. Lekin Jinoyat kodeksining 246-moddasining 2-qismida (*Yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg'in qurolining boshqa turlarini, shunday qurollarni yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon bo'lgan material va moslamalarni, radioaktiv materiallarni, shuningdek giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni ko'p miqdorda kontrabanda qilish*)da mazkur jinoyatlar uyushgan guruh tomonidan shuningdek, giyohvandlik vositalarini keyinchalik yetkazib berish maqsadida jinoyat sodir etish alohida belgilanmagan. Mazkur taklif alohida band sifatida kiritilishi giyohvandlik vositalar va psixotrop moddalar bilan noqonuniy operatsiyalarda faoliyat yurituvchi shaxslarning butun zanjirini aniqlashva uyushgan narkobiznesga qarshi muvaffaqiyatli kurashish imkonini beradi.

Giyohvandlik vositalari (psixotrop vositalar) kontrabandasi bilan shug'ullanishga sabab va sharoitlariga quyidagilar kiradi:

1. Giyohvandlik vositalarini sotish natijasida jinoiy guruhlar oladigan yuqori foyda.
2. Geosiyosiy va geografik determinantlar Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O'zbekistonning bevosita chegaradosh davlatlar Tojikiston va Afg'oniston davlatlarining mavjudligi, ushbu davlatlardan giyohvandlik vositalarini olib kirishga imkoniyat va yetishtirilayotgan giyohvandlik vositalarining ko'pligi imkoniyat yaratadi.
3. Giyohvandlik vositalari va psixotrop vositalar kontrabandasini belgilovchi omillardan biri sifatida bojxona qonunchiligi va uning huquqni qo'llash amaliyotining

takomillashmaganligini ko'rsatish mumkin.

4. O'zbekiston Respublikasi chegarasi orqali giyohvandlik vositalari kontrabandasini amalga oshirishda moddiy manfaatdor bo'lgan mansabdor shaxslar, chegara va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining korrupsion holatlari ham imkoniyat yaratadi. Shu bilan bir qatorda, mansabdor shaxslarning mansab vakolatidan foydalangan holda, bojxona hujjatlarini qalbakilashtirish, ma'muriy yoki jinoiy protsessual jarayonlarga aralashish, tergovni asossiz to'xtatish, moddiy dalillarni yo'qotishlari ham mumkin.

5. Bojxona organlari hamda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar va muammolar yuzasidan xorijiy davlatlar huquqni muhofaza qilish tuzilmalari bilan o'zaro hamkorlikdagi faoliyati yetarli darajada emas. Aslida esa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zaro faoliyatitizimli ravishda amalga oshirilgan taqdirdagina yetarli natija va samaraga erishish mumkin bo'ladi.

Shu singari, e'tiborimizni qaratishimiz lozim bo'lgan boshqa bir masala ham mavjud bo'lib, kontrabanda predmeti hisoblangan giyohvandlik vositalarining sintetik va yarim sintetik (amfetamin tipidagi stimulyatorlar, heroin va kokain) turlarini ishlab chiqarish, tayyorlash yoki qayta ishlashda kimyoviy prekursorlar ishlatmasdan tayyorlashning imkoni mavjud emas, ularning aksariyat ko'pchiligi O'zbekiston hududida ham, chet davlatlarda ham qonuniy muomalada mavjudligidir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida sintetik va yarim sintetik giyohvandlik vositalarining savdosi va iste'molining kengayishi bunday giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish va ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan prekursorlar vaboshqa moddalarni noqonuniy muomalaga olib kiruvchi jinoiy guruhlar faolligining kuchayishi bilan bevosita bog'liqdir.

Qonunchiligimizga muvofiq, kimyo va tibbiyot sanoatida ishlatiladigan dori vositalari va farmatsevtika sohasida ishlatiladigan mahsulotlari mamlakatimizda qonuniy ravishda muomalada bo'lib, mazkur qonuniy tovarlar niqobi ostida bojxonazoratidan yashirib, jinoiy harakatlarni qonuniy moliyaviy-xo'jalik operatsiyalari sifatida yashirish yo'llar bilan olib kirish ehtimollari ham yo'q emas.

Buning ustiga, qonunchilikda rasman prekursorlar sifatida tan olinmagan, mazkur sintetik moddalar ishlab chiqarishda foydalaniladigan moddalar mavjud bo'lib, ularning doimiy ravishda yangilash, ro'yxatga kiritib borish lozim.

Shu munosabat bilan, prekursorlarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish sohasida tezkor-qidiruv ishlarini tashkil etish va taktikasiga yangicha yondashuvlarni, shu bilan, o'rganish va baholash orqali ishlab chiqish zarurligimasalasini ko'rib chiqish zarur.

Masalan, *heroin* ishlab chiqarishda sirka anhidrid, atseton, etil efir, toluol, xlorid kislota ishlatiladi.

*Kokain* tayyorlashda esa kaliy permanganat va amfetamin tipidagi stimulyatorlarni — efedrin va psevdofedrin, 1-fenol-2-propanon, allilbenzol, benzaldegid, etanamin va boshqa ko'plab moddalarni kimyoviy sintez qilishda bevosita foydalanish orqali olinadi.

Shu o'rinda mazkur faoliyat ustidan bevosita nazoratni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 30-apreldagi 229-son qarori bilan Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat komissiyasi tashkil etilgan.

Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat komissiyasi narkotik moddalarning noqonuniy muomalada bo'lishiga qarshi kurashni muvofiqlashtirish, ham milliy, ham mintaqalar darajasida narkotik moddalar tarqalishi oldini olishning samarali chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, narkotik moddalar ustidan nazorat qilish yuzasidan xalqaro majburiyatlarni bajarish masalalari bo'yicha idoralararo organ hisoblanadi.

**Komissiyaga quyidagi asosiy vazifalar va funksiyalar yuklatiladi:**

- narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha umumdavlat dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirishga ko'maklashish;

- barcha davlat organlari, jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari va fuqarolarning sa'y-harakatlarini narkotik vositalarning noqonuniy muomalada bo'lishiga qarshi kurash olib borishning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarini hal etishga birlashtirish va jamlash va mana shu maqsadlarda jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-tarbiyaviy imkoniyatlaridan keng foydalanish;

- doimiy ravishda tegishli hududda, zaruriyat bo'lganda esa – alohida joylardan narkotik vositalarning noqonuniy muomalada bo'lishiga qarshi kurashning ahvolini kompleks baholash, uning yomonlashuviga munosabat bildirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- narkotik vositalar ustidan nazorat qilish bo'yicha respublika operativ axborot markazini tashkil etishga va uning faoliyatini takomillashtirishga, O'zbekiston Respublikasining manfaatdor vazirliklari va idoralari bilan, shuningdek, MDH qatnashchisi bo'lgan mamlakatlar va boshqa xorijiy davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan axborotni erkin va to'siqsiz ayirboshlashni ta'minlash uchun markaz bilan narkotik moddalar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi tashkilotlar o'rtasida yagona tarmoq tashkil etishga ko'maklashish;

- narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha tashkilotlarga xizmatlar ko'rsatish uchun respublika sud ekspertizasi xizmati, kriminalistik laboratoriyani tashkil etishga va uning faoliyatini takomillashtirishga ko'maklashish;

- narkotik moddalar ustidan nazorat qilish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning yo'nalishini belgilash va bu tadqiqotlarni muvofiqlashtirish;

- narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha dasturlarni mablag' bilanta'minlash uchun mablag'larni jalb etish ishida davlat, jamoat, muassasalar va korxonalarining o'zaro hamkorligini ta'minlash;

- huquqni muhofaza qilish organlarini malakali xodimlar bilan mustahkamlash tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Bu organlarga moddiy-texnikaviy va moliyaviy yordam ko'rsatish, ularning ish amaliyotiga narkotik moddalarni izlash, topish va identifikatsiyalash bo'yicha ilmiy yutuqlar va ilg'or tajribani joriy etish;

- narkotik moddalarning respublika orqali MDH mamlakatlariga va G'arb davlatlariga noqonuniy olib o'tiladigan yo'llarni to'sib qo'yish, mahalliy xom ashyodan tayyorlanadigan narkotik moddalar yetkazib berilishiga barham berish bo'yicha birgalikdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bilan bog'liq tashkilotlarining xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari bilan hamkorligini ta'minlash;

- BMTning 1961, 1971 va 1988-yillardagi Konvensiyalariga va boshqa xalqaro bitimlarga muvofiq xalqaro va milliy nazorat ostiga olinishi kerak bo'lgan narkotik vositalar, boshqa moddalar ro'yxatini tasdiqlash, ushbu ro'yxatlar bo'yicharasmiiy tushuntirishlar berish;
- noqonuniy muomalaga chiqarish ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka olib keladigan xalqaro va milliy nazoratda bo'lgan narkotik vositalar va boshqa moddalar hajmlarini aniqlash;
- tarkibida narkotik vositalar mavjud bo'lgan dori-darmonlar va preparatlarni ishlab chiqarish, saqlash, transportda tashish va qonuniy foydalanishni tartibga soluvchi huquqiy va nazorat-texnik qoidalarni ishlab chiqish, ularni qo'llashga vakolat berilgan davlat organlari tomonidan ularning qo'llanishi ustidan nazorat qilishni tashkil etish;
- narkotik vositalarning noqonuniy muomalada bo'lishiga qarshi kurash olib borish chora-tadbirlarini amalga oshirishga yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'lar va moddiy resurslarni taqsimlash;
- narkotik moddalar muomalasining turli jihatlariga tegishli bo'lgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa normativ hujjatlar loyihalari bo'yicha xulosalarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish;
- O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida narkotik moddalar ustidan nazorat qilish masalalari bo'yicha hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashish;
- narkotik vositalarning noqonuniy muomalada bo'lishiga qarshi kurash olib borish masalalari bo'yicha MDHga kiruvchi davlatlar bilan bitimlar loyihalariga, shuningdek, boshqa xorijiy mamlakatlar bilan bitimlar loyihalariga takliflar tayyorlanishini ta'minlash;
- narkotik moddalarning noqonuniy muomalada bo'lishiga va ularni suiiste'mol qilishga qarshi kurash olib borish sohasida xalqaro bitimlarda nazarda tutilgan O'zbekistonning majburiyatlari vazirliklar va idoralar tomonidan bajarilishiustidan nazoratni ta'minlash;
- narkotik moddalar ustidan nazorat qilish masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar faoliyatida belgilangan tartibda qatnashish;
- narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha ish tajribasini o'rganish uchun tegishli nomzodlarni tanlash va ularni xorijiy mamlakatlarga yuborish;
- narkotik vositalarning noqonuniy muomalada bo'lishiga qarshi kurash olib borish bo'yicha tajriba almashish uchun milliy va xalqaro seminarlar, konferensiyalar va simpoziumlar tashkil etish.

Komissiyaga O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri – Komissiya raisiboshchilik qiladi.

Komissiyani o'rinbosari Milliy markazning direktori hisoblanadi. Komissiya tarkibiga ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati, bojxona organlari, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi va boshqa davlat organlari rahbarlari kiradilar.

Komissiyaning shaxsiy tarkibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.<sup>2</sup>

Vazirlar Mahkamasining "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatni litsenziyalashtog'risida"gi 2003-

---

<sup>2</sup> Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazining asosiy vazifalari. <https://ncdc.uz/maqsad-vazifa-va-funksiyalari-1>



yil 16-iyuldagi 315-son qaroriga asosan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash va tashish faqat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi, litsenziya olish uchun ular tomonidan Sogʻliqni saqlash vazirligiga ichki ishlar organlarining obyektning texnik talablarga muvofiqligi toʻgʻrisidagi xulosasi taqdim etiladi.

Mazkur nizom talablari Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bojxona organlarining ekspertiza va tezkor-qidiruv faoliyatida, shuningdek, Adliya vazirligining sud-ekspertiza muassasalari faoliyatida foydalaniladigan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va prekursorlarga tatbiq etilmaydi.

---

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-yanvardagi prekursorlarning muomalada boʻlishi bilan bogʻliq faoliyat boʻyicha hisobotlar yuritish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 6-son Qaroriga muvofiq Narkotik vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada boʻlishi bilan bogʻliq faoliyatni amalga oshirishga litsenziyasi mavjud boʻlgan yuridik shaxslar choraklik va yillik hisobotlar taqdim etadilar.

Narkotik vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada boʻlishi bilan bogʻliq faoliyatni amalga oshirishga litsenziyasi mavjud boʻlgan yuridik shaxslar oʻz faoliyati toʻgʻrisida (ishlab chiqarilgan, tayyorlangan, olib kelingan (olib ketilgan), sotilgan, foydalanilgan narkotik vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlar miqdori toʻgʻrisida) ushbu Nizomning tegishli ilovalarga muvofiq shakllar boʻyicha choraklik hisobotni hisobot davrdan keyingi oyning 25-kunidan kechikmasdan, yillik hisobotni hisobot yilidan keyingi yilning 25-yanvarigacha boʻlgan muddatda taqdim etadilar.

Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi Dori vositalari va tibbiyot texnikalar sifatini nazorat qilish bosh boshqarmasining Narkotik vositalarni nazorat qilish qoʻmitasi kiritilgan hisobotlar asosida yigʻma hisobot tuzadi va uni ilova qilinayotgan shakllar boʻyicha Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Davlat komissiyasiga va Davlat komissiyasi bilan kelishgan holda BMT Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish Xalqaro qoʻmitasi tomonidan belgilangan tartibda va shakl boʻyicha Xalqaro qoʻmitaga taqdim etadi.<sup>3</sup>

Oʻzbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar toʻgʻrisida”gi №813-I-sonli Qonuni 4-modasida <sup>4</sup> Oʻzbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar quyidagi roʻyxatlarga kiritiladi:

- muomalada boʻlishi Oʻzbekiston Respublikasida taqiqlangan giyohvandlik vositalari roʻyxati;
- muomalada boʻlishi Oʻzbekiston Respublikasida cheklangan giyohvandlik vositalari roʻyxati;
- muomalada boʻlishi Oʻzbekiston Respublikasida cheklangan psixotrop moddalar

---

<sup>3</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 – yil 8 – yanvardagi “Oʻzbekiston Respublikasida narkotik vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada boʻlishi bilan bogʻliq faoliyat boʻyicha hisobotlar yuritish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 6 – son Qarori. <https://lex.uz/docs/1422690>

<sup>4</sup> Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, 19.08.1999-yildagi 813-I-son. <https://lex.uz/ru/docs/-86044>

ro'yxati;

- muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida cheklangan prekursorlar ro'yxati.

---

- giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar ro'yxatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadi va matbuotda e'lon qilinadi deb belgilab qo'yilgan bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda xalqaro shartnomalariga, shu jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining narkotik moddalar va psixotrop vositalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish to'g'risidagi 1988-yildagi konvensiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida nazorat qilinishi kerak bo'lgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, narkotik moddalar va psixotrop vositalarning prekursorlari sifatida belgilab qo'yilgan.

Mazkur moddalarning noqonuniy muomalaga kirishiga yo'l qo'ymaslik va shu orqali giyohvandlik vositalarini noqonuniy ishlab chiqarish va ishlab chiqarishning xomashyo bazasini cheklash maqsadida prekursorlar muomalasi ustidan samarali nazoratni tashkil etish, shu singari, qonunga xilof ravishda huquqbuzarlik uchun javobgarlik choralari ishlab chiqish, prekursorlarning aylanishi giyohvandlik tahdidiga qarshi kurash mexanizmining eng muhim tarkibiy qismidir.

Keyingi bir necha yil mobaynida prekursorlarning aylanmasi ustidan nazorat sohasida bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lib, milliy qonunchilik tizimini xalqaro qonunchilik qoidalariga muvofiqlashtirish maqsadida muhim ishlar amalga oshirildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi 1988-yilgi Konvensiyaga implementatsiya qilingan bo'lib, unda nazarda tutilgan prekursorlarning aylanishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi<sup>5</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrdagi "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o'tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo'lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to'g'risida"gi №330-son qarori qabul qilingan bo'lib, aynan mazkur qarorning 7-ilovasida O'zbekiston Respublikasida muomalada bo'lishi cheklangan prekursorlarning ro'yxati tasdiqlagan<sup>6</sup>.

Bunday prekursorlarni ishlab chiqarish, sotish va ulardan foydalanishga, ularni olib kirishga (eksport qilishga) faqat ilmiy va o'quv maqsadlarida, shuningdek ekspertiza va tezkor-qidiruv faoliyati amalga oshirish maqsadlari uchun ruxsat etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №330-son qarori 7-ilovasiga qaraydigan bo'lsak, 29 turdagi prekursorlar ro'yxati keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2001-yil 29-dekabrda 1090-son

---

<sup>5</sup> Конвенция организации объединенных наций о борьбе против незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ 1988 года. [https://www.unodc.org/pdf/convention\\_1988\\_ru.pdf](https://www.unodc.org/pdf/convention_1988_ru.pdf)

<sup>6</sup> Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o'tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo'lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to'g'risida. <http://old.lex.uz/docs/-2815340>

bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash, berish, sotish, taqsimlash, hisobga olish shartlari to'g'risidagi nizom"ning IV bobida aynan prekursorlarni saqlash, berish, hisobini olib borish va sotish tartibi aniq belgilab qo'yilgan.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 273-moddasi "Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni laboratoriyalarda yoxud o'zganing mulki hisoblangan vositalar va asbob-uskunalardan yoki prekursorlardan foydalangan holda qonunga xilof ravishda tayyorlash yoki qayta ishlash, shuningdek bunday vositalarni iste'mol qilish yoki tarqatish uchun bangixonalar tashkil qilish yoki saqlash,..." deb belgilab qo'yilgan. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar prekursorlariga qarshi kurash hamda javobgarlik masalalari takomillashtirilishi natijasida 2018-yil 22-oktyabr kuni O'RQ-503-son Qonuni<sup>7</sup> bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 19, 56, 127, 207, 246, 251<sup>1</sup>, 261, 273, 274, 275 va 276-moddalarining tegishli bandlariga "giyohvandlik vositalari" degan so'zlardan keyin "ularning analoglari" degan so'zlar bilan to'ldirildi. Biroq, Jinoyat kodeksining 273-moddasida tashqaribirorta moddasida ushbu giyohvandlik vositalari tayyorlashda foydalaniladigan prekursorlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o'tish hamda noqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilanmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki O'RQ-503-son Qonuni bilan Jinoyat Kodeksining VIII-bo'limi bir qator atamalar bilan to'ldirilgan bo'lib, jumladan:

"Giyohvandlik vositalarining analoglari – kimyoviy tuzilishi va xossalari ko'ra giyohvandlik vositalariga o'xshash bo'lgan, ular singari ruhiyatga faol ta'sir etadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar".

Prekursorlar – prekursorlar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini va psixotrop moddalarni tayyorlash uchun foydalaniladigan moddalar deb kiritilgan.

Bugungi kunda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning prekursorlari noqonuniy savdosi yuzasidan jinoyat qonunchiligida alohida moddalar bilan mustahkamlanmagan. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlar va ularga jazo tayinlash tizimida xorijiy davlatlar xususan Rossiya Federatsiyasi jinoyat qonunchiligini oladigan bo'lsak, mazkur davlat Jinoyat kodeksi 1996-yil 13-iyunda qabul qilingan bo'lib, Kontrabanda jinoyati uchun javobgarlik jinoyat kodeksining 226<sup>1</sup> va 229<sup>1</sup>-moddalari bilan tartibga solingan. Chunonchi:

226<sup>1</sup>-modda. Kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, portlovchi, radioaktiv moddalar, radiatsion manbalar, o'q-otar qurollar yoki ularning asosiy qismlari, portlatish qurilmalari, o'q-dorilari, ommaviy qirg'in qurollarini yetkazib berish vositalari shuningdek, boshqa qurollar, harbiy texnikalar, strategik muhim tovarlar va resurslar yoki madaniy boyliklar yoxud o'ta noyob hayvonlar va suv biologik resurslar kontrabandasi.

229<sup>1</sup>-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning analoglari yoki

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartish vaqo'shimchalar kiritish to'g'risida. <http://old.lex.uz/docs/-4011752>

prekursorlari, tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan o'simliklar shuningdek, psixotrop moddalar yoki ularning prekursorlar yoxud ularning qismlari, psixotrop moddalar va giyohvandlik vositalari tayyorlashda foydalaniladigan materiallar va moslamalar kontrabandasi.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksida kontrabanda jinoyati uchun javobgarlik quyidagi moddasida belgilangan:

- 286-modda. Muomalasi cheklangan yoki muomalasi taqiqlangan predmetlar kontrabandasi.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksi 286-moddasi predmetlari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi predmetlari bilan bir xil, jinoyatning obyektiv tomoni ham farq qilmaydi, faqat moddaning nomi va jazo tuzilishida farqlar mavjud.

Yuqorida ko'rsatilgan terminlar bir-biriga o'xshash bo'lsada, ularning ma'nosi ortida xalqaro va milliy davlat jinoyatchilik normalari darajalarini xilma-xilligi namoyon bo'ladi. Davlatlarning xilma-xilligi, davlatlarning xalqaro xarakterdagi jinoyatlarga qarshi kurashishda o'zaro hamkorlik qilish faoliyati uningbirinchi bosqichidayoq turli to'siqlar va qiyinchiliklarga duch keladi, xususan, ularning harakatlari kimga qaratilganligi zarurligini aniqlab olish bosqichi ham bir qancha muammolarga to'la. Bu borada, ayniqsa ko'pgina tomonlar jinoyatlarning nomlanishi bilan bog'liq masalalarda qattiq munozaralar qiladilar.

Xitoy Xalq Respublikasi Jinoyat qonunchiligini ko'radigan bo'lsak, bu davlatning Kuba, Vetnam, KXDR singari sotsializm va kommunistik g'oyalaridan voz kechmagani va uning qonunchiligi sotsializm huquqi asosida rivojlanayotganini ta'kidlash zarur.

XXRning birinchi qabul qilingan Jinoyat kodeksi 1949-yildan kuchga kirgan.

Shundan so'ng 1997-yilga kelib yangi tahrirdagi jinoyat kodeksi qabul qilingan.

XXR Jinoyat kodeksida ham xalqaro xarakterga ega bo'lgan kontrabanda jinoyati uchun bir qator moddalar belgilangan, jumladan, 191-, 240-, 347-357-moddalari aynan giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilab qo'yilgan. Jumladan:

- 347-modda. Giyohvandlik vositalarini kontrabanda qilish, sotish, tashish va ishlab chiqarish, ularning miqdoridan qat'iy nazar, jinoyat deb hisoblanadi va ushbu Kodeksga muvofiq jazoga tortiladi.

- 349-modda. Giyohvandlik vositalarini kontrabanda qilish, sotish, tashish va ishlab chiqarish bilan bog'liq jinoiy elementlarni yashirish, yashirishda yordam berish, topshirish, saqlash.

Ushbu moddaning 3-bandida Giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoiy unsurlarni yashirgan davlat organlarining mansabdor shaxslari eng og'ir jazoni o'taydilar deb belgilab qo'yilgan.

- 350-modda. Sirka kislotasi angidrid, sulfat efir, triklorometan yoki dori ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida ishlatiladigan boshqa moddalar yoki davlat qoidalarini buzgan holda, yuqorida aytib o'tilgan moddalarni noqonuniy tashish, mamlakat hududida noqonuniy savdosi uchun javobgarlik belgilangan.

- 357-moddasining 2-qismida Giyohvandlik vositalari miqdori kontrabanda, sotilgan, tashilgan, ishlab chiqarilgan yoki olib o'tilgan dorilarning haqiqiy miqdoriasosida aniqlanadi va

kimyoviy tozalangandan keyingi haqiqiy vazni inobatga olinmaydi deb belgilab qo'yilgan<sup>8</sup>.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki kontrabanda bilan bog'liq jinoyatlar, xususan giyohvandlik vositalari ularning prekursorlari, psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlardan tashqari O'zbekiston Respublikasi balki butun dunyo mamlakatlari uchun doimiy ravishda jiddiy muammo bo'lib kelgan.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 246, 270-276-moddalari bilan mazkur jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan. Lekin faqatgina 273-moddasida prekursorlar bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o'tish hamda noqonuniy muomalasi uchun javobgarlik masalalari ochiq qolmoqda. Kelgusida mazkur bo'shliqni to'ldirish maqsadida Jinoyat kodeksining tegishli moddalariga prekursorlar bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlik masalalarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari, kontrabanda jinoyatni aniqlash va bartaraf qilish choralariga quyidagilar kiradi:

- yaqin va uzoq xorij mamlakatlaridan narkotik, psixotrop, kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni noqonuniy olib kirishdan bojxona chegaralari o'tkazish punktlarida samarali himoya qilish tizimini yaratish va aylanma yo'llar orqali olib o'tish mumkin bo'lgan hududlarni to'liq nazoratga olishi.

- bojxona nazorati samaradorligi bo'yicha choralarni takomillashtirish, bojxona va chegara organlarining texnik ta'minotini oshirish;

- O'zbekiston Respublikasi hududida yashirin narkolaboratoriyalar faoliyatini tugatish hamda giyohvandlik vositalarini noqonuniy ishlab chiqarish, tashish, ta'minlash tizimlariga barham berish;

- giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasiga ixtisoslashgan transmilliy jinoiy tashkilotlar belgilarini aniqlash va faoliyatini bartaraf qilish;

- psixofaol moddalarning yangi turlarini ularni keyinchalik giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritgan holda o'z vaqtida aniqlash va belgilash;

- giyohvandlik vositalarining noqonuniy yetkazib berish kanallarini berkitishga qaratilgan kelishilgan davlatlararo preventiv, tergov, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish, xalqaro hamkorlikni takomillashtirish;

- respublika aholisini giyohvandlik vositalari iste'mol qilishga jalb qilish va ularning mazkur illatga tobe qatlamini ko'paytirishga qarshi kurashishda faoliyat yurituvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan idoralararo o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borish shaklini takomillashtirish, bojxona nazorati samaradorligini oshirish bo'yicha choralarni amalga oshirish;

- giyohvandlik vositalari kontrabandasini tizimli zanjirini aniqlash (jumladan, nazorat ostida yetkazib berish), shuningdek giyohvandlik vositalari va psixotrop vositalarni aniqlash

---

<sup>8</sup> Уголовный Кодекс Китайской Народной Республики  
<https://www.mfa.gov.cn/ce/cerus/rus/zfhz/zgflyd/t1330730.htm>

uchun xizmat itlaridan foydalanishga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish.

Shu singari, Jinoyat kodeksining 246-modasi 1-qismida o'tkazish maqsadidagi jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR:** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda giyohvandlik global muammolardan biridir. Asr vabosi deb baholanayotgan "oq ajal" qanchadan-qancha insonlarning baxtiga zomin bo'layotgani, Giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishga odatlanish oqibatida nogiron, jismoniy va aqliy nuqsoni bor bolalar dunyoga kelayotgani haqida o'ylasak, yanada sergak tortamiz. Og'uning quliga aylanib qolayotgan zamondoshlarimizni to'g'ri yo'lga qaytarish barchamiz uchun foydalidir. Shunday qilib, oilalarimiz tinchligi, farzandlarimiz kelajagiga raxna solayotgan, jiddiy xavfga aylangan giyohvandlikka qarshi birgalikda kurashishimiz zarur.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organi xodimlari mamlakatimiz chegaralarida bevosita xizmat olib borish jarayonlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida birinchilardan bo'lib giyohvandlik vositalari kontrabandasiga qarshi kurash olib borishadi.

Ayniqsa, BMTning Giyohvandlik vositalari va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi mintaqaviy vakolatxonasi rahbari Ashita Mittal xonim "26-iyun – Xalqaro giyohvandlikka va giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurash kuni" munosabati bilan 2020-yil 26-iyun kuni o'tkazilgan tadbir davomida ham giyohvandlikka qarshi kurash yo'nalishida Bojxona organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni yuqori baholagan.

O'zbekiston Respublikasida 2021-yil davomida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi bilan bog'liq 7142 ta huquqbuzarlik holati aniqlangan bo'lib, o'tkazilgan tezkor tadbirlar natijasida jami 1 tonna 933,7 kg giyohvandlik vositalari ushlab qolingani. Aniqlangan giyohvandlik vositalarining 531 kg.dan ortig'i bevosita bojxona organi xodimlari tomonidan tezkor tadbirlarda ushlab qolingani.

Amalga oshirilgan ishlar xorijiy davlatlar bilan ko'p tomonlama imzolangan shartnomalar bo'lishiga qaramasdan giyohvandlik vositalari noqonuniy savdosibilan bog'liq jinoyatlar yildan yilga ortib bormoqda. Yuqorida keltirib o'tilgan BMT va boshqa davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan o'quv seminar treninglar, ular tomonidan ko'rsatilayotgan amaliy va texnik yordamlar o'z samarasini yetarlicha ko'rsatyapti deb ayta olmaymiz. Ko'pincha bojxonada mavjud bo'lgan maxsus texnik vositalar va xizmat itlari yordamida jinoyatchilikka chek qo'yishning to'liq imkoni mavjud emasligi, faqat bojxona xodimlarining kasbiy va tezkor mahorati giyohvandlik vositalari kontrabandasini aniqlashning yagona samarali vositasi bo'lib qolmoqda. Giyohvandlik vositalari kontrabandasiga ixtisoslashgan uyushgan jinoiy jamoalar doimiy ravishda o'z taktikasini o'zgartirib borishini hisobga olib, bugungi kunda tezkor va tahliliy ish usullari birinchi o'rinda turadi va bojxona xizmati xodimlarining tezkor-qidiruv tayyorgarligini oshirish va bu sohada xorijiy davlatlar huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari bilan tajriba almashishga katta e'tibor qaratish lozim. Shu bilan bir qatorda, bojxona organlari ish faoliyatidan kelib chiqib "nazorat ostida yetkazib berish" tezkor tadbirini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan organ hisoblandi. Giyohvandlik moddalari noqonuniy savdosi yildan yilga ortib borayotganligi va aniqlanayotgan holatlar miqdori (partiyasi) ham katta

miqdorlarni tashkil qilayotganligini inobatga olgan holda mazkur tadbirni amalga oshirish har doimgidan ham dolzarb masalaga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunitalablariga asosan tezkor xodim tomonidan kontrabanda ashyolarini “nazorat ostida olish” va “nazorat ostida yetkazib berish” kabi tezkor qidiruv tadbirlarini o‘tqazish jarayonida foydalanilgan pul kupyuralarida, kiyim va har xil buyumlarda, tana a‘zolarida (qo‘lda, yuzda va h.k.) maxsus kukun izlarini topish, ularni taqqoslash namunasi bilan bir turga taalluqli yoki taalluqli emasligini, obyektlarga aynan ushbu kukun bilan ishlov berilganligini, maxsus izlarni aniqlash maqsadida maxsus kukunlar ekspertizasi ham tayinlanadi. Bojxona chegarasi orqali olib kiriladigan giyohvandlik vositalarining nazorat qilinadigan jo‘natmalari tezkor-qidiruv tadbirlar sanalib, unda operativ faoliyatni amalga oshiruvchi idora va organlar nazorati ostida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga kiritishga, mazkur hududdan chiqarish yoki narkotik moddalarni u orqali o‘tkazishga yo‘l qo‘yiladi.

Nazorat ostida yetkazib berish tezkor qidiruv tadbirini amalga oshirish uchun organ rahbari tomonidan tasdiqlangan qaror asosida o‘tkaziladi.

Bojxona organlari tezkor tuzilmalari tomonidan so‘ngi yillarda “nazorat ostida yetkazib berish” tezkor tadbiri juda kam hollarda qo‘llanilayotganligi, 2022-yilning o‘tgan davri mobaynida faqatgina bir marotabagina mazkur tezkor tadbir o‘tkazilganligini aytishimiz mumkin.

Mazkur sohada boshqa mamlakat huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikning huquqiy dasturi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi hajmini kamaytirish, profilaktik tibbiy hamda ma‘muriy tadbirlarni o‘tkazish, giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish va noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashni kuchaytirish hamda o‘zaro faoliyat shakli va yo‘nalishlari, xalqaro-huquqiy me‘yorlarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lishi shart.

Holbuki, jinoyatchilikka chek qo‘yish, uni oldini olishda faqatgina uning ildiziga bolta urish va tag-tomiri bilan sug‘urib tashlash bilangina erishish mumkin. Kelajakda ushbu tadbirlar sonini ko‘paytirish va xalqaro doirada mazkur illatga qarshi birgalikda kurashish yanada samarali natija beradi deb o‘ylaymiz.

Tadqiqotlar natijasida amaliyotda giyohvandlik vositalari kontrabandasi bilan bog‘liq jinoyatlarni aniqlash va kvalifikatsiya qilishda bir qator muammolaryuzaga kelmoqda. Binobarin:

Huquqiy sohadagi muammolar:

- O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 246-moddasi predmetlarining xilma-xilligi, 1-qismida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni miqdori ko‘rsatilmaganligi;

- O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar tayyorlashda foydalaniladigan prekursorlarni bojxona chegarasi orqali olib o‘tish uchun javobgarlik belgilanmaganligi;

- O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 24-dekabrda “**Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida**”gi Qonunining tegishli moddalari takomillashtirilmaganligi;

Tashkiliy muammolar:

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar xususan prokuratura organlari bilan hamkorlik

masalalarida raqamlashtirish, yangicha elektron dasturlar orqali ma'lumot almashish tizimining yo'qligi;

- bojxona organlari xodimlari, xususan tezkor tuzilma xodimlari tomonidan moddiy qiymatga ega bo'lmagan kontrabanda ashyolari aniqlangan taqdirda rag'batlantirish masalalarida bo'shliqlar borligi;

- xodimlarni malakasini oshirish jarayonida faqat ichki imkoniyatlarimiz bilan cheklanib qolmoqdamiz.

Shu o'rinda giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida qonunchilikni takomillashtirish va jazolarni liberallashtirishga qaratilgan bir qator taklif va mulohazalarimizni bildirib o'tmoqchimiz. Ayniqsa:

**1-Taklif:** Agar shaxs bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan JKning 246-moddasida nazarda tutilgan predmetlari to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni deklaratsiyalab, bojxona organlariga o'z ixtiyori bilan kontrabanda ashyolarini topshirsa Jinoyat kodeksining 246-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishini talab etmaydi hamda tegishli JK 244<sup>1</sup>-moddasi Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash, 248-moddasi Tegishli litsenziyalarsiz yoki ruxsatnomalarsiz o'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini saqlash, 251<sup>1</sup>-moddasi Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar hisoblanmaydigan kuchli ta'sir qiluvchi yoxud zaharli moddalarni o'tkazish maqsadida qonunga xilof ravishda saqlash, 253-moddasi Radioaktiv materiallarni saqlash, 276-moddasi Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay, qonunga xilof ravishda saqlash nazarda tutilgan jinoyatlar bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Shaxsning giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni deklaratsiyalab, bojxona organlariga o'z ixtiyori bilan giyohvandlik vositalarini topshirsa shaxsning harakatlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 246-moddasi bilan emas, balki O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 276-moddasi bilan tasniflash va jazo tayinlashda inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sud amaliyotini o'rganish natijalari, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabanda uchun javobgarlikka oid jinoyat ishlarini ko'rishda qonun normalarini turlicha talqin qilish va qilmishlarga noto'g'ri huquqiy baho berish kabi xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda. Qonunchilikka kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarni e'tiborga olgan holda, amaliyotda uchrayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2-sonli qarori 19-bandiga yuqorida ta'kidlab o'tilganidek 2-xatboshi sifatida qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblayman.

**2-Taklif:** O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 246-moddasi 1-qismi giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni davlat chegarasidan noqonuniy olib o'tgan taqdirda jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayonida miqdoriga ko'ra ajratish va jazo tayinlashda inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.



O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 246-moddasi 1-qismida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni miqdori ko‘rsatilmaganligi sababli, amaliyotda Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2-sonli qarori 17-bandi 2-xatboshisida “Bojxona chegarasi orqali Jinoyat kodeksining 246-moddasi 1-qismida ko‘rsatilgan kontrabanda predmetlarini o‘tkazishda ifodalangan harakatlarni kvalifikatsiya qilishda kontrabanda predmetlarining miqdori huquqiy ahamiyat kasb etmaydi” deb ko‘rsatilganligi sababli, oz miqdordagi giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni kontrabanda yo‘li bilan olib o‘tilgan holatlarga Jinoyat kodeksining 246-moddasi 1-qismi bilan malakalanib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o‘tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo‘lishiyuzasidan nazoratni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2015-yil 12-noyabrdagi 330-son qaroriga o‘zgartirishlar kiritish haqida 2018-yil 27-oktyabr kungi 878-sonli qarori bilan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning ko‘p bo‘lmagan, ozginadan ko‘proq va ko‘p miqdori belgilangan ro‘yxati tasdiqlangan bo‘lib, ushbu ro‘yxatda ko‘rsatilgan ko‘p bo‘lmagan miqdor oz miqdorni tashkil qiladi.

Shaxsning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni oz miqdorda o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay saqlashdan iborat harakatlari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 276-moddasi 1-qismi bilan emas, balki Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 56-moddasi bilan tasniflanib, eng kam ishhaqining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi. Lekin, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni oz miqdorda bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘tkazganlik uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri Jinoyat kodeksining 246-moddasi 1-qismi bilan malakalanib, besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Respublikamizda hozirgi kunda sud-huquq sohasida liberalizatsiya siyosati amalga oshirilayotgan bir vaqtda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni oz miqdorda bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘tkazganlik uchun ichki hududda noqonuniy saqlashga nisbatan jazo miqdori nihoyatda og‘ir va bu odillik tamoyiliga zid bo‘lib qoladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Jinoyat kodeksining 246-moddasi 1-qismi giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni davlat chegarasidan noqonuniy olib o‘tgan taqdirda jinoyatnikvalifikatsiya qilish jarayonida miqdoriga ko‘ra ajratish va jazo tayinlashda inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**3-Taklif:** Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar bilan bir qatorda mazkur vositalarni tayyorlashda ishlatiladigan xomashyo hisoblangan prekursorlar bilan noqonuniy muomala qilish bilan bog‘liq huquqbuzarlik holatlari ortib borayotganligini, hozirgi kunda amaliyotda shunday holat sodir bo‘lgan taqdirda uni aynan qaysi modda bilan kvalifikatsiya qilish masalasi ochiq qolayotganligini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 246-moddasiga prekursorlar bilan bog‘liq holatlar sodir etilgan taqdirda javobgarlik masalalarini belgilab qo‘yish kerak.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 273-moddasida “Giyohvandlik vositalari,

ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni laboratoriyalarda yoxud oʻzganing mulki hisoblangan vositalar va asbob-uskunalardan yoki prekursorlardan foydalangan holda qonunga xilof ravishdatayyorlash yoki qayta ishlash, shuningdek bunday vositalarni isteʼmol qilish yoki tarqatish uchun bangixonalar tashkil qilish yoki saqlash...”,– deb belgilab qoʻyilgan. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar prekursorlariga qarshi kurash hamda javobgarlik masalalari takomillashtirilishi natijasida 2018-yil 22-oktyabr kuni OʻRQ-503-son Qonuni bilan Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi — 19, 56, 127, 207, 246, 251<sup>1</sup>, 261, 273, 274, 275 va 276-moddalarining tegishli bandlariga “giyohvandlik vositalari” degan soʻzlardan keyin “ularning analoglari” degan soʻzlar bilan toʻldirildi. Biroq, Jinoyat kodeksining 273-moddasidan tashqari boshqa birorta moddasida mazkur giyohvandlik vositalari tayyorlashda foydalaniladigan prekursorlarni Oʻzbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib oʻtish hamda noqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilanmaganligini koʻrishimiz mumkin. Shu oʻrinda aytib oʻtish kerakki OʻRQ-503-son Qonuni bilan Jinoyat Kodeksining VIII-boʻlimi “Prekursorlar” atamasi bilan toʻldirilgan boʻlib, binobarin: Prekursorlar — prekursorlar roʻyxatiga kiritilgan va Oʻzbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini va psixotrop moddalarni tayyorlash uchun foydalaniladigan moddalar deb kiritilgan.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni koʻrsatadiki kontrabanda bilan bogʻliq jinoyatlar, xususan giyohvandlik vositalari ularning prekursorlari, psixotrop moddalar bilan bogʻliq jinoyatlar nafaqat Oʻzbekiston Respublikasi ehtimol butundunyo mamlakatlari uchun doimiy ravishda jiddiy muammo boʻlib kelgan. Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 246, 270-276-moddalari bilan mazkur jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan. Lekin, faqatgina 273-moddasida prekursorlar bilan bogʻliq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib oʻtish hamda noqonuniy muomalasi uchun javobgarlik masalalari ochiq qolmoqda. Kelgusida mazkur boʻshliqni toʻldirish maqsadida Jinoyat kodeksining tegishli moddalariga prekursorlar bilan bogʻliq jinoyatlar uchun javobgarlik masalalarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq boʻladi.

## REFERENCES

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T. “Oʻzbekiston” 2023-yil.
2. Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat–protsessual kodeksi. Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
4. “Giyohvandlik vositalari toʻgʻrisida”gi Yagona Konvensiya (1961-yil 30-mart).
5. Oʻzbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi “Davlat bojxona xizmati toʻgʻrisida”gi OʻRQ-502-sonli Qonuni. Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
6. Oʻzbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar toʻgʻrisida”gi 813-I-sonli Qonuni. Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
8. Y.f.n. prof. v.b. D.Bazarova, y.f.d. dotsent I.R.Astanov “Kriminalistika va ekspertiza” darslik. – “Toshkent”: TDYU, 2020-y.